

О‘SMIRLIK YOSHIDYIGIT VA QIZLARDA DESTRUKTIV XULQNING NAMOYON BO‘LISHI

Xolmatova Namunaxon Oybek qizi

University of business and science

Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada destruktiv metod xulqning namoyon bo‘lishi tavsifi, xulqning salbiy oqibatlari va ijtimoiy me‘yor ko‘rinishlari kabi yetakchi mezonlar ochib berishga harakat qilingan. Shaxsning buzg‘unchi xulq-atvorining nazariy jihatlarini ko‘rib chiqish amalga oshirildi.

Kalit so‘zlar: Deviantlik, destruktiv xulq psixologlar, Ijtimoiy, xulq-atvor, Alkogolizm.

KIRISH

Hozirgi globalashuv zamonida ayniqsa yoshlarga turli xil buzg‘unchi hatti harakatlar yani biror nasani yo‘q qilishga qaratilgan ichki faoliyatning og‘zaki yoki boshqa ko‘rinishlari .Yoq qilish shaxsning barcha sohalarini qamrab oladi ;ijtimoiylashuv ,sog‘lik ,mehnat va boshqa sohalarini qamrab oladi. Bunday hatti harakatlar shaxsning mavjudligi sifatining yomonlashuviga o‘z harakatlariga tanqidiy munosabatning pasayishiga ,sodir bo‘layotgan narsalarni idrok etish va talqin qilishning kognitiv buzilishiga o‘z-o‘zini hurmat qilishning pasayishiga buzilishga olib keladi. Bu ko‘pincha shaxsning mutlaq izolatsiyasiga qadar ijtimoiy moslashuvga olib keladi .Bunday xatti-harakatlar bazan tajovuzkorlikni aniqlashdan iborat bo‘lgan himoya himoya mehanizimining natijasidi . Har bir xulq-atvor modeli bolalik davrida shaklanadi .

Xulq atvor asosan oilada shakllanadi va kamol topadi .Oilada xulq-atvor asosan ota –ona tomonidan shakllantiriladi .Ota – onaning farzantlarga bo‘lgan munosabati uning roli ayniqsa farzand hayotida katta ahaniyat kasab etadi .Uning yuksak kamolga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi .Shahs kamolotining barcha bosqichlarida yani bolaning tug‘uguncha va bog‘cha yoshidan etiboran to kasbiy mahorat egallagunga qadar shakllana boradi. Desturuktiv shaxs – bu vayron qiluvchi ongsizlikka tayanib harakat qiluvchi shaxsdir. SHuni aytib o‘tishimiz kerakki ,desturuktiv shaxs faoliyatining turlaridan bu o‘z- o‘ziga buzg‘unchi munosabat bo‘lib o‘z joniga qast qilishni ham o‘z ichiga oladi. Insonlarning desturuktiv xulq –atvorining mohiyatini tushinishga L.S.Vigotskiyning “Madaniy va tarixiy yondoshuv” konsepsiyasida quyidagi fikirlar keltirib o‘tilgan. U har bir shaxsni biologik yetukligi va madaniy rivojlanishi aniq ajratib turadi. Birinchisi shahsiyatni shakllantirish tug‘ma asos bolib uni albatta e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. Ikkinchisi ijtimoiylashuv jarayonida

shaklangan va rivojlangan shahsiy rivojlanish mazmuni bu har bir insonni o'rab turgan jamiyatdagi real munosabatlar samarasidir. Albata ijtimoiylashuv yosh bola desturktiv xulqiga tasiri juda katta deb hisoblaymiz chunki yosh bolalarning atrofidagi insonlar muhim ahamiyat kasb etadi. Deviant xulq-atvorning nisbatan keng tarqalgan shakllari:

Ma'lumki, maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha deviant axloq (deviatio-latin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo'llaymiz—"og'ishgan", "deviant", bunda birinchi atama aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli afzal ko'riladi. O'rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko'rinib turgan murakkabligiga hammadan avvaluning fanlararo xarakteri sababdir. Yovuzlikning tabiati haqidagi nazariyalar, S.P. Ivanov, Z. Freyd, V.V. Boyko va Erich Fromm kabi faylasuflar tomonidan ko'rib chiqiladi. Ekstremizmning ijtimoiy-psixologik omillari yoritilgan, o'quvchining ekstremistik va terroristik tashkilotga a'zo bo'lish belgilari bayon etilgan.

Hozirgi vaqtda bu tushuncha ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq "rasman o'natilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan munosabat, inson harakati" ma'nosida psixologiya, pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. "Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va qarashlarga mos tushuvchi ijtimoiy ko'rinish" ma'nosida sotsiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Og'ishgan xulqni birinchi aspektidagi afzalligi -individual faollikning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqamiz. Shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratida yordam bersin: Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrofmuhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar —bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi.

Fromm shunday fikrga keladi: Gumanistik qarash insonni butkul agressiyadan chiqaruvchi tizimdir deydi. Shundan so'ng Z.Freyd o'zining "Tahribotlik (Destruktivnost)"ini taqdim etadi, biroq bu konsepsiya ko'pchilik olimlar tomonidan Freyd "Destruktiv nazariyasi" bo'lib o'rganilmadi. Ba'zi olimlar esa "Destruktivlikni" umuman "Metapsixologik spekulyatsiya" deb qaraydilar. Boshqa olimlar tomonidan esa bu nazariya tanqidga uchraydi. Jamiyatda insonlar faoliyati, hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-

atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir. Shaxsning og'ishgan xulqi -bu umumqabul qilingan yoki rasman o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlarga mos tushmaydigan axloq. Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydigan harakatlardir. Deviant axloqni me'yordan og'ishgan axloq sifatida baholashda ijtimoiy me'yorlar o'zgarishini inobatga olish lozim. 2. Shaxs va deviant axloq, uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomonidan salbiy baholanadi. Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sanksiya, shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo'lishi mumkin.

Dastavval, sanksiyalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq, boshqa tomondan ular shaxs stigmatizatsiyasi unga tamg'a osish kabi salbiy ko'rinishga olib keladi. Masalan, jazo muddatini o'tab, "me'yoriy" hayotga qaytgan odamning moslashuvdagi qiyinchiliklari yaxshi ma'lum. Insonning yangi hayot boshlashga intilishi ko'pincha atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo'ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, olz-o'zini o'ldiruvchi va h.k.) tamg'asi sekin-asta deviant tenglikni (o'z-o'zini his qilish) shakllantiradi. Shunday qilib, axmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiladi va deviant axloqning takrorlanishini chaqiradi. Og'ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o'zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda hayot sifatini pasaytirgan holda real zarar keltirishi hisoblanadi. Bu mavjud tartibning noturg'unligi, ma'naviy va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik vadard-alam yetkazish, sog'ligining yomonlashishi bo'lishi mumkin. Deviant axloq o'zining eng so'nggi ko'rinishlarida hayot uchun bevosita xavf tug'diradi, masalan, suitsidal axloq, zo'ravonlik jinoyatlari, "og'ir" giyohvand moddalar iste'mol qilish kabilar. Zararning psixologik namoyon bo'lishi o'sha odamning o'zi yoki uning atrofidagilarning aziyat chekishidir. Insondagi destruktiv xulq tabiati hozirga qadar psixologiya fanida hali yaxshi o'rganilmagan muammolardan biri sanaladi.

Maktab o'quvchilarining konstruktiv xulqini shakllantirishga doir ijtimoiy xatti-harakatlar dasturini tuzish, jamoatchilik fikrini o'rganish asosida axloqiy tamoyillar, an'analar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega bo'lish, shuningdek, har jihatdan komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi konstruktiv boshqaruvchanlikni shakllantirishda psixoprofilaktik hamda psixokorreksion shart-sharoitlar va mezonlardan foydalanish zarurati kuzatilmoqda. Aksariyat psixologiya sohasida salbiy xulq ko'rinishi destruktivlikning yuqori, o'rta hamda past darajalari bilan baholanib, bunday xulq har qanday yosh va ijtimoiy maqomdagi shaxsni shakllanishiga to'siq bo'luvchi, shaxslararo munosabatlar tizimiga xavf soluvchi, o'zini hamda o'zgalarni «parchalovchi», ya'ni o'zini o'zi hurmat qilish yoki faoliyatini boshqarishdagi

to'siqlar, muvaffaqiyatdan mahrum etishlik, shuningdek, atrofdagi insonlar ijtimoiylashuviga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayonlarni qamrab oladi. Psixologiyada destruktiv xulq atamasining talqiniga turlicha yondashib tahlil etilgan, xususan, destruktiv xulq-atvor biror narsa yoki vaziyatga qaratilgan «buzg'unchilik» bo'lib, u ichki faoliyatning og'zaki va noverbal ko'rinishlari bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy faoliyatning boshqa turlariga organizmda ro'y beruvchi jadal garmonal qayta qurilishlar uni o'ta zaif va muhitning salbiy ta'sirlariga beriluvchan qilib qo'yadi, ya'ni shu davrdagi fiziologik, psixologik yetilishning nosinxronligi o'smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlarning kuchayishiga sabab bo'lib, buning natijasida shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muayyan ehtiyoj, dunyoqarash, intilish hamda irodaviy sifatlarning o'zgarishi bilan salbiy xarakterlanadi. Biz tadqiqotimizda shaxsning destruktiv xulq ko'rinishi sifatida, namoyon bo'lishida keskinlikka ega, ijtimoiylashuvda dezadaptatsiyalashuvni keltirib chiqaradigan agressiv xatti-harakatlarni tahliliga to'xtalib o'tamiz.

Agressiya – (lotincha «agressio» – hujum) boshqa shaxsga, odamlar guruhiga yoki jonli va jonsiz predmetlarga zarar yetkazishga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar. Agressivlik – tajovuzga tayyorgarlikda namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatidir¹. Konstruktiv xulq-atvor – bu ziddiyatli tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni me'yorlashtirishga ko'maklashadigan, keskinlikni yengillashtiradigan va o'zaro tushunishga olib keladigan so'zlar hamda harakatlardir. Konstruktiv xulq-atvorning yana bir izohi uni ijodiy xulq stereotiplari deb atash imkonini berib, bunda o'zaro ta'sirning yangi usullari yaratiladi, sodir bo'layotgan voqealardan xabardorlik ortadi, emotsional holatlarni boshqarish uchun qo'shimcha imkoniyatlar ochiladi.

XULOSA

Destruktiv xulq 2 ta asosiy turlarda namoyon bo'ladi: 1- Delinkvent tur - jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy huquqiy me'yorlarga qarama qarshi bo'lgan xatti-harakatlarga xulqning yo'nalganligidir. 2- Deviant tur -jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlarga qarama qarshi xulqiy ko'rinishlarni namoyon etish. Destruktiv xulqning barcha ko'rinishlarida insonning ma'lum bir himoya reaksiyalari sifatida yuzaga kelsada biroq nerv sistemasida buzilishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Destruktiv xulq bolalikdagi salbiy emotsional kechinmalar, ota onaning bolaga nisbatan emotsional sovuqqonligi natijasida zarur vaqtlarda ulardan yetarli darajada mehr-muhabbatga ega bo'lmaganligi, nasliy omillar bo'lishi ham mumkin. Destruktiv xulq barcha insonlar uchun xosdir. Ayrim insonlarda bu xulq shunchalik kuchliki, ularning jamiyatdagi o'rnini va xulqini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Ya. Olimov, A.M. Nazarov «Tafakkur avlodi», 2020
2. В.М. Umarov Tarbiyasi qiyin bolalar bilan ishlashda psixologik xizmatning o‘rni. //uslubiy qo‘llanma. –Т. –2008, 86-bet.
3. Зимелева З.А. Агрессивное поведение подростков и личность родителей / Публикации в журналах портала ПейЖоурналс.ру // Психологическая наука и образование. 2001. том 6, № 4 с. 22-27 5. Formation of constructive behavior as a factor in the effectiveness of schoolchildren’s education
4. Odilboyevich, J. X. (2024). Psychological Description of Teenage Outlaws in Interpersonal Relationships. *Journal of Preschool Education and Psychology Research*, 1(1), 20-22.
5. Odilboyevich, J. X. (2023). PSYCHOTIC AND LIMITED NEUROTIC LEVELS DURING PERSONALITY SOCIAL LIFE. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(4), 27-34.
6. Odilboyevich, J. X., & Yuldashboyevich, A. S. (2024). SHAXSNING PSIXOLOGIK SENZITIVLIK DARAJASI VA UNING PSIXOLOGIK TIPOLOGIYASI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 145-148.
7. Odilboyevich, J. X. (2023). SHAXS IJTIMOIIY XIMOYASIZLIGI VA UNING OGISHGAN XULQ-ATVORIGA TASIRIDA SHAKILANADIGAN PSIXOANALITIK HIMOYA MECHANIZMLARI ORNI VA AXAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 33(2), 186-189.
8. Odilboyevich, J. X. (2023). Psychopathic character and psychopathological characteristics of delinquent behavior in children of adolescent and adolescent age. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(5), 99-104.
9. Jurayev, X. O. (2023). O ‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviant xulq-atvor shakllanishiga ta’sirining psixologik mexanizmlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(9), 560-569.
10. Odilboyevich, J. X. (2024). O’SMIRLIK YOSH DAVRIDA SHAXSDA SUITSID XOLATLARINI PROFILAKTIKA QILISH YO’LARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 47(3), 111-114.